

TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING MUHIM JIHATLARI

Umarova Amina

"Texnologik ta'lim" yo'nalishi 2-kurs talabasi


Navoiy davlat pedagogika instituti

Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.Kamalova

Hozirgi kunga kelib hayotimizni texnika va texnologiyalarsiz tassavvur qilishimiz qiyin. Ta'lim tizimi esa ta'lim oluvchilarni amaliyot hamda nazariy bilimlar bilan boyitib borishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim sifatini oshirish maqsadida 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilishi, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birgalikda quramiz", "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", "Milliy tiklanishdan milliy yuksalishgacha" deb bildirgan ishonchlari bejizga emas.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Texnologiya" fani o'tilar ekan, o'quvchilarni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishishi puxta bilim olishi, iqtidorlarini to'la namoyon qilishlari, barcha qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlari hamda jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlari muhim hisoblanadi. Bilingki, fan-texnika har qanday sohada taraqqiyot asosi sanaladi. Fan va texnika bir-birini o'zaro to'ldirib, rivojlanishi asosida ishlab chiqarishni tashkillashtirish darajasi, texnologiyasi doimiy ravishda yangilanib va takomillashib borishini ta'minlaydi. Shunday ekan, yangi materiallar va ularning xossalari, xususiyatlarini hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish talab etiladi. Chunki intellektual qobiliyatlarni shakllantirishda texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarni, maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish, mahsulotlarni tayyorlash ketma-ketligini, tayyor mahsulot sifatini tahlil qila olish zarur boladi.

Texnologiya faninini tarkibiga ajdodlarimizdan bizgacha qolib kelayotgan duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik, to'quvchilik pazandachilik, zardo'zlik, misgarlik kasanachilik, kabi keng qamrovli mashg'ulotlar kiradi.



1-rasm. Texnologiya fanidan qo'llaniladigan asboblar

Zero, texnologik jarayonlarning bajarilishiga oid tegishli xulosalar chiqarish, mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda zamonaviy texnika va texnologiyalar, asbob-uskuna, moslama va stanoklardan foydalana olishni o'rganish, avtomatlashtirilgan mashina va mexanizmlar asosida ishlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha dastlabki bilimlarga ega bo'lishadi.

Yuqotida aytib o'tganimizdek, bugungi kunimizda texnikalarning ahamiyati va roli juda katta. Shunday ekan, bugungi kungi shart sharoitrlardan keng va unumli foydalangan holda o'quvchilardan faqat o'qish talab qilinmoqda.



2-rasm. Texnologiya o'quv xonasining ko'rinishi

Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida bizga zamonaviy texnika va texnologiyalar, oziq-ovqat mahsulotlariga, materiallarga ishlov berish texnologiyasi, energiya ishlab chiqarish va undan foydalanish, mexatronika hamda ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslarini o'rgatish, xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini asosida ta'lim-tarbiya berish, axloqiy tushunchalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Binobarin, bilingki, har qanday davlat va jamiyatning taraqqiyotini, kelajagini bilimli, tarbiyali yoshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Texnologiya xonalar va jihozlaridan foydalanar ekansiz, ishni xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilgan holda olib borasiz. Darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida ma'lumotlarni qidirish, bajarish tartibini eslash, axborotlardan foydalanish, sinfdoshlar va kattalar bilan o'zaro muloqot qilishni va bir-biringizga yordam berish, kelishib ishlashni o'rganasiz. Shu orqali texnologiya va uning rivojlanishi haqida tasavvuringiz yanada kengayadi.

Shuningdek, biz darslikda o'zimizning loyihalarimizni yaratishni, tayyorlagan ishlarimizga texnologik mezonlar asosida baho berishni o'rganamiz. Zamonaviy texnika va texnologiyalar, turli yog'och, metall va kompozit materiallarga ishlov berish, harakatlanuvchi oddiy mexanizmlardan foydalanib turli buyumlar yasash usullarini o'zlashtiramiz. Albatta, o'rgangan bu bilimlar o'quvchilarga oila ishlariga

ko‘maklashishga, kasb malakalarini egallashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni va bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligini, yangi texnika va texnologiyalar, zamonaviy materiallar yaratilayotganligini hamda inson mehnatini yengil qilishda mexatronik qurilmalarning hayotimizga kirib kelishini inobatga olgan holda ular haqidagi dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirib, kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga, farovonligiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T. 2019.
2. O‘.O.Tohirov va b. Texnologiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. T. “Sharq”. 2020.